

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

MAY, 2026-YIL





O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

TOSHKENT-2026

ISBN 978-9910-8337-6-2

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2026. – 70 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 8-may

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-8337-6-2

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

Мадаминов Рахматилло

ПРИГОТОВЛЕНИЕ ПИТАТЕЛЬНЫХ СРЕД ДЛЯ БАКТЕРИЙ И ГРИБОВ 5-7

TARIX FANLARI

Qirg'izov Baxtiyor

FARG'ONA VILOYATIDAGI ZIYORATGOHLARNI AYRIMLARINING TARIXI VA ULAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR TAHLILI8-12

IQTISODIYOT FANLARI

Mirzayev Shoxrux

KON-METALLURGIYA SANOATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MEGA INVESTITSIYA LOYIHALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR 13-15

Aliqulov Abbos

ARALASH MA'LUMOTLAR ASOSIDA REGRESSIYA MODELLARINI BAHOLASHDAGI YASHIRIN SEGMENTLAR MUAMMOSI 16-22

FALSAFA FANLARI

Boyxonov Umidjon

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA INSON HUQUQLARI USTUVORLIGI KONSEPSIYASINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 23-28

FILOLOGIYA FANLARI

Isomidinova Zilola

RAQAMLI OAVDA MUALLIFLIK HUQUQI MUAMMOLARI 29-31

Raximjoniva Nozima

ZAMONAVIY MEDIA MAKONIDA TURIZM KONTENTINING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 32-35

Isanova Feruza

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DIPLOMATIK LEKSIKANING SEMANTIK XUSUSIYATLARI 36-39

YURIDIK FANLAR

Мухиддинова Эльзода

ИНСТИТУТ НЕДОПУСТИМОСТИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ: ОБОСНОВАНИЕ НЕЗАВИСИМОСТИ И ОБОСОБЛЕННОСТИ ОТ ДРУГИХ УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ 40-43

Хайдарова Хилола

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЗАЩИТЫ ЦИФРОВЫХ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА 44-48

Shorasulova Gulnoza

RAQAMLI KRIMINALISTIKA TUSHUNCHASI VA UNING QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI 49-54

PEDAGOGIKA FANLARI

Nizomova Bashoratxon, Mirazamova Mahliyo

ZOOLOGIYA TA'LIMIDA TAYANCH BELGILAR (SXEMA, JADVAL, GRAFIK) VA MULTIMEDIA
TAQDIMOTLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH 55-58

Xaydarova Namunaxon

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN
MEXANIZMNI ISHLAB CHIQISH 59-61

Adamatov Anvar

KOREYA TA'LIM TIZIMIDAGI PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNING GLOBAL TA'LIM
KONTEKSTIDAGI AHAMIYATI 62-65

SIYOSIY FANLAR

Xolmatov Saidbek

ERON ISLOM RESPUBLIKASINING MINTAQAVIY STRATEGIYASI VA SURIYA OMILINING
GEOSIYOSIY AHAMIYATI 66-69

RAQAMLI KRIMINALISTIKA TUSHUNCHASI VA UNING QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Shorasulova Gulnoza Shovkat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Email: gulnozashorasulova@gmail.com

Tel: +998 50 076 24 04

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi raqamli kriminalistika tushunchasi, uning kriminalistika fani tizimidagi o'rni va qonun ustuvorligini ta'minlashdagi roli o'rganilgan. Tadqiqotda dialektik, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va tizimli-strukturaviy usullardan foydalanilgan. Birinchi marta milliy huquqshunoslikda raqamli kriminalistikaning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida berilgan rasmiy ta'rifi xalqaro doktrina bilan qiyoslab tahlil qilingan. Asosiy diqqat raqamli kriminalistikaning qonun ustuvorligini ta'minlashdagi to'rt yo'nalishdagi rolga qaratilgan: isbotlash sifati, kibermakonda jinoyatchilikka qarshi kurash, sud xatolarining oldini olish va sud-huquq tizimiga ishonch. JPKga 2024-yilda kiritilgan raqamli dalillar instituti hamda 2025-2026 yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar - PF-38, VMQ-479, PQ-229 - asosida sohaning huquqiy va institutsional asoslari yoritilgan. Tadqiqot natijalari "O'zbekiston — 2030" strategiyasining qonun ustuvorligi yo'nalishini ilmiy-huquqiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli kriminalistika, raqamli dalillar, qonun ustuvorligi, kiberjinoyat, jinoyat-protsessual huquq, sud ekspertizasi, kiberxavfsizlik strategiyasi.

THE CONCEPT OF DIGITAL FORENSICS AND ITS ROLE IN ENSURING THE RULE OF LAW

Shorasulova Gulnoza

Master's student at Tashkent State University of Law

Annotation. This thesis examines the concept of digital forensics, its place within the system of forensic science, and its role in ensuring the rule of law. The research employs dialectical, historical-legal, comparative-legal, and systemic-structural methods. For the first time in national jurisprudence, the official definition of digital forensics provided in the legislation of the Republic of Uzbekistan is analyzed in comparison with international doctrine. Special attention is paid to the four-dimensional role of digital forensics in ensuring the rule of law: quality of evidence, combating cybercrime, prevention of judicial errors, and trust in the justice system. The institute of digital evidence introduced into the Criminal Procedure Code in 2024, together with the strategic acts adopted in 2025–2026 — Presidential Decree PF-38, Cabinet Resolution No. 479, Presidential Resolution PQ-229 — provide the basis for analyzing the legal and institutional foundations of the field. The findings serve to substantiate the rule-of-law direction of the "Uzbekistan-2030" strategy from a scientific and legal perspective.

Keywords: digital forensics, digital evidence, rule of law, cybercrime, criminal procedure law, forensic examination, cybersecurity strategy.

Globalashuv va raqamli inqilob davrida insoniyat hayoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan chambarchas bog'lanib bormoqda. Bu jarayon nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'zgartirdi, balki jinoyatchilikning yangi shakllarini - kiberjinoyatlar, raqamli firibgarlik, virtual makonda sodir etiladigan huquqbuzarliklarni keltirib chiqardi. Tahliliy hisob-kitoblarga ko'ra, dunyo bo'yicha kiberjinoyatlardan ko'rilgan zarar 2025-yilga kelib 10,5 trillion AQSH dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda [4; 4-b.]. O'zbekiston Respublikasida ham vaziyat o'ta dolzarb bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoniga ko'ra, kiberjinoyatlarning

umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 49,6% ni tashkil etadi va 2030-yilga kelib 45% gacha kamaytirish maqsad qilingan [10; 380-KPI]. Bu ko'rsatkich raqamli muhitda jinoyatchilikning ham miqyosini, ham milliy javob bera olish zaruratini aks ettiradi. Bunday vaziyatda an'anaviy kriminalistika usullari yetarli emas. Raqamli izlarni topish, mustahkamlash, tahlil qilish va sud uchun isbotlash kuchiga ega bo'lgan dalillarga aylantirish bo'yicha ilmiy-amaliy bilimlar talab etiladi. Aynan shu zarurat raqamli kriminalistika (digital forensics) sohasining shakllanishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi mazkur jarayonga izchil va tizimli yondashmoqda. 2023-yil 30-noyabrdagi PQ-381-son qaror raqamli muhitda huquqbuzarliklarga qarshi kurashning institutsional asoslarini belgilab berdi [13]. 2024-yil 21-noyabrda qabul qilingan O'RQ-1003-sonli Qonun bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga raqamli dalillar institutini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi 204¹ va 204²-moddalar kiritildi [15]. 2025-yil 31-iyuldagi Vazirlar Mahkamasining 479-sonli qarori raqamli kriminalistika sohasining rasmiy yuridik ta'rifini berdi [14]. Nihoyat, 2026-yil 10-martda imzolangan PF-38-son Farmon bilan "O'zbekiston Respublikasining 2026-2030-yillarga mo'ljallangan kibernetika strategiyasi" tasdiqlandi [11].

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagilar bilan asoslanadi. Birinchidan, raqamli kriminalistika tushunchasining mazmuni va kriminalistika fani tizimidagi o'rni milliy huquqshunoslik fanida hali yetarlicha o'rganilmagan. Ikkinchidan, 2024-2026 yillarda qabul qilingan yangi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili ilmiy adabiyotlarda hozirgacha yetarlicha aks etmagan. Uchinchidan, eng asosiysi - raqamli kriminalistikaning qonun ustuvorligini ta'minlashdagi roli ilmiy jihatdan to'liq asoslanmagan, vaholanki bu funktsiya O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida (2023-yil tahriri) belgilangan asosiy konstitutsiyaviy prinsipni amalda voqelantirishning muhim huquqiy mexanizmidir [17; 15-modda].

Mazkur tezisning maqsadi - raqamli kriminalistikaning huquqiy-nazariy mohiyatini ochib berish va uning qonun ustuvorligini ta'minlashdagi rolini asoslashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: raqamli kriminalistika tushunchasining mazmunini va uning kriminalistika fani tizimida tutgan o'rnini tahlil qilish, ushbu sohaning qonun ustuvorligi prinsipini ta'minlashdagi rolini ilmiy-huquqiy nuqtai nazardan asoslab berish. Mavzuning kompleks xususiyati turli ilmiy bilish usullarini qo'llashni taqozo etdi. *Dialektik usul* raqamli kriminalistikaning rivojlanish dinamikasini va AKT bilan o'zaro bog'liqligini o'rganishda, *tarixiy-huquqiy usul* sohaning shakllanish bosqichlarini izchil ko'rib chiqishda, *qiyosiy-huquqiy usul* xalqaro doktrina va milliy qonunchilik o'rtasidagi mosliklar va farqlarni aniqlashda, *tizimli-strukturaviy tahlil* raqamli kriminalistikaning kriminalistika tizimidagi o'rnini belgilashda, *hujjat tahlili usuli* esa milliy va xalqaro huquqiy hujjatlarni - Konstitutsiya, JPK (jumladan O'RQ-1003 bilan kiritilgan o'zgartirishlar), PF-38, VM-479, Budapesht konvensiyasi va ISO/IEC 27037:2012 standartini o'rganishda foydalanildi.

Xalqaro ilmiy adabiyotda raqamli kriminalistika "*raqamli qurilmalardan, axborot tizimlaridan va kompyuter tarmoqlaridan dalillarni topish, mustahkamlash, saqlash, tahlil qilish va sud-huquq jarayonlarida taqdim etish bilan shug'ullanadigan kriminalistikaning maxsus ilmiy-amaliy yo'nalishi*" sifatida ta'riflanadi [2; 7-b.]. Mazkur soha 1980-yillarning oxirida kompyuter jinoyatlarining paydo bo'lishi natijasida shakllana boshladi. AQSHda

1984-yilda FBR tarkibida birinchi raqamli dalillarni tahlil qilish bo'limi (Computer Analysis and Response Team) tashkil etilishi ushbu sohaning amaliy boshlanishi sifatida e'tirof etiladi [18; 5-b.]. Carrier raqamli kriminalistikani "*raqamli qurilmalarda saqlangan ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanish ilmi va san'ati*" deb belgilaydi [1; 11-b.]. Reith, Carr va Gunsch buni "*raqamli dalillarni topish, identifikatsiya qilish, ekstraksiya qilish, hujjatlashtirish va izohlash jarayoni*" sifatida tushuntiradi [19; 2-b.]. McKemmish ta'rifi alohida ahamiyatga ega, u "*huquqiy jihatdan qabul qilinadigan tarzda raqamli dalillarni identifikatsiyalash, saqlash, tahlil qilish va taqdim etish jarayoni*" sifatida belgilaydi va bu ta'rifda *huquqiy qabul qilinadiganlik* mezoni alohida ta'kidlangan [8; 1-b.].

Milliy qonunchilik uchun muhim yangilik shundaki, raqamli kriminalistikaning yuridik ta'rifi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida birinchi marta 2025-yil 31-iyuldagi Vazirlar Mahkamasining 479-sonli qarori bilan rasmiylashtirilgan: "*Raqamli kriminalistika sohasi - kiberjinoyatlarni, shuningdek, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari, axborot texnologiyalari va raqamli axborot tashuvchi vositalardan foydalangan holda jinoyatlarni sodir etish imkonini bergan shart-sharoitlarni o'rganish, dalillarni to'plash va kriminalistik tadqiqotlarini o'tkazish faoliyati*" [14; 1-ilova, 2-band]. Mazkur ta'rifning kuchli tomoni - u **uchta elementni** qamrab oladi: (a) o'rganish ob'ekti (kiberjinoyatlar va AKT yordamida sodir etilgan boshqa jinoyatlar); (b) faoliyat usuli (dalillarni to'plash); (c) ilmiy mohiyat (kriminalistik tadqiqotlar). Bu McKemmish [8; 1-b.] va Casey [2; 7-b.] ta'riflari sintezi sifatida tushunilishi mumkin va xalqaro yondashuvga moslashtirilgan.

Kriminalistika fani an'anaviy ravishda kriminalistika nazariyasi, kriminalistik texnika, kriminalistik taktika va jinoyatlarni tergov qilish metodikasi qismlaridan iborat. Raqamli kriminalistikaning ushbu tizimda joylashuvi munozarali. Vehov buni kriminalistik texnikaning bo'limi sifatida ko'radi [20; 48-b.]. Casey [2; 9-b.] va Mason [7; 31-b.] esa mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida e'tirof etadi - chunki raqamli dalillarning o'ziga xos xususiyatlari (nomoddiylik, oson o'zgaruvchanlik, takrorlanuvchanlik, metama'lumotlarga bog'liqligi) alohida nazariy va metodologik baza talab qiladi. Bu borada Masonning yondashuvi yanada kengroq bo'lib, raqamli kriminalistikani kompleks, integratsion fan sifatida tushunadi, u kriminalistika, axborot xavfsizligi, kompyuter texnologiyalari va huquqshunoslik kesishmasida joylashgan degan fikrlarni bildirgan [7; 33-b.]. Mazkur tezisda mustaqillik va integratsionlikning sintezi asosli deb topiladi, ya'ni raqamli kriminalistika mustaqil ilmiy yo'nalish bo'lib, ayni paytda manbalariga ko'ra integratsiondir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-229-son qarori bilan tashkil etilgan Huquqni muhofaza qilish akademiyasining Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti aynan shunday integratsion modelni amalga oshiradi. Institut tarkibida Ixtisoslashtirilgan raqamli tadqiqot markazi, Raqamli tergovga ko'maklashish bo'limi, Uslubiy yordam ko'rsatish bo'limi va Raqamli kriminalistika laboratoriyasi (*Digital Forensic Lab*) faoliyat ko'rsatadi [12].

Raqamli dalillar - bu raqamli shaklda saqlangan, jinoyat ishi yuzasidan ahamiyatga ega bo'lgan har qanday axborot. ISO/IEC 27037:2012 standartiga muvofiq, ularga raqamli qurilmalardan olingan ma'lumotlar, tarmoq trafigi, log-fayllar, metama'lumotlar, audio-video yozuvlar, bulutli xizmatlardagi ma'lumotlar kiradi [6; 5-b.]. Casey ularning to'rt asosiy xususiyatini ajratadi: nomoddiylik, o'zgaruvchanlik, takrorlanuvchanlik va

metama'lumotlarga bog'liqligi [2; 24-b.]. O'zbekiston Respublikasi 2024-yil 21-noyabrda qabul qilingan O'RQ-1003-sonli Qonun bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga raqamli dalillar institutini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi muhim o'zgartirishlar kiritdi. Xususan, JPKga **204¹-modda** ("Elektron ma'lumotlar") va **204²-modda** ("Raqamli dalillar") kiritildi. JPKning 204²-moddasiga muvofiq, *"ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan elektron ma'lumotlar, shu jumladan elektron tarzdagi fayllar, audio-, videoyozuvlar, Internet jahon axborot tarmog'ida saqlanayotgan ma'lumotlar, shuningdek boshqa elektron ma'lumotlar raqamli dalillardir"* [16; 204²-modda]. Mazkur islohot milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish yo'lidagi muhim huquqiy qadamdir. Shuni ham ta'kidlash lozimki, O'RQ-1003 nafaqat JPKga, balki Fuqarolik protsessual kodeksiga, Iqtisodiy protsessual kodeksiga, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga, "Notariat to'g'risida"gi va "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunlarga ham raqamli dalillar institutini kiritgan, shuning uchun ushbu islohot butun protsessual qonunchilik tizimi bo'ylab kompleks xarakterga ega [15].

Qonun ustuvorligi prinsipi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi va xalqaro huquq normalari bilan kafolatlangan asos bo'lib, barcha shaxslarning qonun oldida tengligini, davlat hokimiyati organlari faoliyatining qonunga bo'ysunishini va shaxsning huquq va erkinliklarining samarali himoyasini nazarda tutadi [17; 15-modda]. Raqamli asrda mazkur prinsipni amalda ta'minlash uchun raqamli kriminalistika to'rt yo'nalishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. **Birinchi**dan, **isbotlash sifatini ta'minlash**. Adolatli sud-huquq tartiboti - qonun ustuvorligining negizidir. Ammo raqamli muhitda sodir etilgan jinoyatlarni an'anaviy usullar bilan isbotlash deyarli imkonsiz. Casey ta'kidlashicha, *"raqamli dalil - bu nafaqat texnik fakt, balki huquqiy haqiqatga aylanishi uchun maxsus protsessual qoidalarga rioya qilinishi shart bo'lgan ob'ektdir"* [2; 12-b.]. Demak, raqamli kriminalistika sud xulosalarining ishonchliligini oshiradi va shu orqali qonun ustuvorligi prinsipining "isbotga asoslangan adolat" elementini ham mustahkamlaydi. **Ikkinchi**dan, **kibermakonda jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligi**. O'zbekistonda kiberjinoyatlar umumiy jinoyatchilikning 49,6 % ini tashkil etishi [10; 380-KPI] raqamli kriminalistika imkoniyatlarini oshirishni kechiktirib bo'lmas vazifaga aylantirgan. 2025-yil 30-apreldagi PQ-153-son qaror axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirishni belgilab berdi [9]. Bundan tashqari, 2026-yil 10-martdagi PF-38-son Farmon bilan tasdiqlangan Kiberxavfsizlik strategiyasining 1-bandida raqamli kriminalistika imkoniyatlarini va huquqni muhofaza qilish organlarining ixtisoslashtirilgan bo'linmalari salohiyatini oshirish strategik vazifa sifatida belgilangan [11; 1-band]. Qonun ustuvorligi shunda namoyon bo'ladiki, jinoyat qayerda va qanday muhitda sodir etilishidan qat'i nazar javobgarlikka tortilishi va jazolanishi kerak. Raqamli kriminalistika kibermakonni "huquqsizlik mintaqasi" bo'lib qolishidan saqlashning eng muhim vositasidir. **Uchinchi**dan, **sud xatolarining oldini olish va shaxs huquqlarini himoya qilish**. Raqamli kriminalistikaning ilmiy uslublariga rioya qilinmagan dalillar nafaqat ayblovga, balki noto'g'ri ayblanishga ham olib kelishi mumkin. Garrie va Morrissy AQSH sud amaliyotidagi *"Daubert standarti"* misolida shuni ko'rsatishadiki, raqamli ekspertizaning ilmiy ishonchliligi shaxs huquqlarini himoya qilishning kafolatlaridan biriga aylangan [5; 124-b.]. Aynan shu ma'noda raqamli kriminalistika qonun ustuvorligining ikki

tomonlarni mohiyatini, ya'ni *jinoyatchini fosh etish va aybsiz shaxsni himoya qilishni* bir vaqtda ta'minlaydi. **To'rtinchidan, sud-huquq tizimiga ishonchni mustahkamlash.** Qonun ustuvorligi nafaqat formal qoidalar majmuyi, balki ijtimoiy ishonch fenomeni hamdir. Raqamli kriminalistikaning ilmiy va shaffof asoslarda rivojlanishi sud xulosalarining tushunarligini oshiradi va bu fuqarolarda sud-huquq tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlil quyidagi xulosalarga olib keldi:

*Birinchi*dan, raqamli kriminalistika - bu mustaqil, integratsion ilmiy yo'nalish bo'lib, kriminalistika tizimida alohida o'rin egallaydi. U an'anaviy kriminalistik texnikaning oddiy tarmog'i emas, balki o'ziga xos nazariy, metodologik va texnologik bazaga ega bo'lgan, AKT, axborot xavfsizligi va huquqshunoslik kesishmasida shakllangan fan sohasidir. Mazkur tushuncha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida [14; 1-ilova, 2-band] rasmiy ta'rif olgan va bu ta'rif xalqaro doktrina bilan muvofiq. *Ikkinchi*dan, raqamli dalillar institutining huquqiy mustahkamlanishi (JPK 204¹ va 204²-moddalar, O'RQ-1003 asosida) milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishning muhim qadamidir. Mazkur islohot butun protsessual qonunchilik tizimi bo'ylab kompleks xarakterga ega [15]. *Uchinchi*dan, raqamli kriminalistika qonun ustuvorligini ta'minlashning zamonaviy huquqiy mexanizmi sifatida xizmat qiladi. U isbotlash sifatini oshiradi, kibermakonda jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligini ta'minlaydi, sud xatolariga yo'l qo'ymaydi va sud-huquq tizimiga ishonchni mustahkamlaydi. *To'rtinchidan*, O'zbekistonda 2023-2026 yillar davomida qabul qilingan strategik hujjatlar [13; 15; 12; 14; 11] raqamli kriminalistikaning huquqiy va institutsional asoslarini izchil ravishda shakllantirdi. Keyingi vazifa esa texnik-protsessual mexanizmlarni yo'riqnomalar darajasida batafsillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdir. Raqamli kriminalistikaning rivojlanishi nafaqat texnologik, balki konstitutsiyaviy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lib, "O'zbekiston — 2030" strategiyasining qonun ustuvorligini ta'minlash yo'nalishini amalga oshirishga muhim hissa qo'shadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Carrier, B. (2005). File system forensic analysis. Addison-Wesley Professional.
2. Casey, E. (2011). Digital evidence and computer crime: Forensic science, computers, and the internet (3rd ed.). Academic Press.
3. Council of Europe. (2001). Convention on Cybercrime, ETS No. 185, Budapest, 23 November 2001.
4. Cybersecurity Ventures. (2023). 2023 Official cybercrime report. Cybersecurity Ventures.
5. Garrie, D. B., & Morrissy, J. D. (2014). Digital forensic evidence in the courtroom: Understanding content and quality. *Northwestern Journal of Technology and Intellectual Property*, 12(2), 121-135.
6. International Organization for Standardization. (2012). ISO/IEC 27037:2012. Information technology — Security techniques — Guidelines for identification, collection, acquisition and preservation of digital evidence. ISO.
7. Mason, S. (Ed.). (2017). Electronic evidence (4th ed.). LexisNexis Butterworths.
8. McKemmish, R. (1999). What is forensic computing? *Trends and Issues in Crime and Criminal Justice*, (118), 1-6.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, PQ-153, 2025-yil 30-aprel.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, PF-21, 2026-yil 16-fevral.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni, PF-38, 2026-yil 10-mart.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli kriminalistika sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, PQ-229, 2024-yil 21-iyun.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to'g'risida"gi qarori, PQ-381, 2023-yil 30-noyabr.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Raqamli kriminalistika tadqiqotlari sohasida mutaxassislar malakasini oshirish va sertifikatlangan mutaxassislarning yagona elektron reyestrini yuritish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, № 479, 2025-yil 31-iyul.
15. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni, O'RQ-1003, 2024-yil 21-noyabr.
16. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan, keyingi o'zgartirishlar bilan, jumladan O'RQ-1003 sonli 21.11.2024-y. Qonun bilan kiritilgan 204¹ va 204²-moddalar).
17. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel referendumida qabul qilingan tahrirda).
18. Pollitt, M. M. (2010). A history of digital forensics. In K.-P. Chow & S. Sheno (Eds.), *Advances in digital forensics VI* (pp. 3–15). Springer.
19. Reith, M., Carr, C., & Gunsch, G. (2002). An examination of digital forensic models. *International Journal of Digital Evidence*, 1(3), 1–12.
20. Вехов, В. Б. (2016). Электронные доказательства: проблемы теории и практики. *Правопорядок: история, теория, практика*, 4(11), 46–50.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-may

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
– Toshkent: Scienceproblems team, 2026. – 70 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 8-may

ISBN 978-9910-8337-6-2

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.